



MAKTABGACHA TA'LIM SOHASI TARAQQIYOTIDA RAHBARNING KASBIY VA SHAXSIY SIFATLARINING O'RNI

Sheraliyeva Anorxon Ergashevna

Marhamat pedagogika kolleji
"Maktabgacha pedagogika" fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5548045>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-sentabr 2021

Ma'qullandi: 25-sentabr 2021

Chop etildi: 30-sentabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Maktabgacha ta'lim,
texnologiyalarining joriy
etilishi, rahbar

ANNOTATSIYA

XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlar, dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimining bosh maqsadi ham bevosita ijtimoiy-gumanitar fanlarni puxta biladigan, jahon maydonida o'z bilimi orqali raqobatlasha oladigan, o'zining fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, Vatani hamda millatiga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ularini maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida shakllantirishga yo'naltirilgan. Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'inidir. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Shu bois bolalarning sog'lom va bilimli, yetuk kadrlar bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi juda - muhim o'rin tutadi.

Davlatimiz tomonidan bu tizimga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu masalaga doir bir necha yig'ilishlar o'tkazilib, tarixiy qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur tashkilotlarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan edi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli qarori bayon etilgan. Shu o'rinda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni intellektual, jismoniy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, umuminsoniy



qadriyatlar bilan tanishtirish, bolalarni maktabga sifatli tayyorlash maqsadida turli to'garaklar, ma'naviyat va ekologiya xonalari, kichik muzey, kutubxonalar tashkil etish borasidagi an'analarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq. Chunki kitobga, san'atga, ilmga, umuman, kelajakda muayyan kasbni egallashga bo'lgan qiziqish bolalarda ayni shu davrda shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi. Maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tashkilotdir. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo hali sohada yechimini kutayotgan qator kamchiliklar bor. Jumladan, joylardagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moddiy-texnik bazaning nochorligi, malakali kadrlar yetishmasligi, sifatli oziq-ovqat ta'minotining pastligi kabilar bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olishni ta'minlashga imkon bermayapti. Aytish kerakki, bu o'ta muhim va dolzarb

vazifalarni tez va sifatli bajarish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning doimiy e'tiborida bo'lmoqda. 2017 yil 9 sentyabr kuni qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori ushbu fikrimizning amaliy ifodasidir. Qarorda maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, MTTlar infratuzilmasi va moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Unga ko'ra, maktabgacha ta'lim tizimini tanqidiy o'rganish va faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha komissiya tashkil etildi. Ushbu komissiya maktabgacha ta'lim sohasidagi qonunchilikni undagi bo'shliqlarni, korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarni yuzaga keltiruvchi normalarni aniqlash nuqtai nazaridan tahlil qilish, sohada davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan, zarur infratuzilmani yaratishga, xodimlarning mehnatini moddiy rag'batlantirishga, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash va malakasini oshirishga, xususiy sektorni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash hamda kompleks o'rganish kabi bir qator dolzarb vazifalarni bajarishi nazarda tutilgan.

Ayniqsa, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etishga davlat talablarini qayta ko'rib chiqish, bolalarni qabul qilishning amaldagi tartibini, vakolatli davlat organlari faoliyatiga zamonaviy axborotkommunikatsiya



texnologiyalarining joriy etilishi holatini tanqidiy o'rganish ham bevosita komissiya zimmasiga yuklandi. 2018 yil 1 yanvardan boshlab, Toshkent, Nukus shaharlarida, viloyatlar markazlarida eksperiment tariqasida davlat-xususiy sheriklik shartlarida yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlari

tashkil etilishi ham sohada o'ziga xos yangilik, deyish mumkin. Buning uchun investorlarga yer uchastkalari, bo'sh turgan binolar foydalanish uchun ajaratiladi. Ularga soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar beriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlanib, shu asosda aniq chora-tadbirlar belgilandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish, xorij tajribasidan foydalanib, milliy tizimni yanada rivojlantirishga doir amaliy ishlarni bajarish ko'zda tutilgan. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida "Bolalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul qilish va navbatga qo'yish bo'yicha elektron dastur"ni joriy etish bo'yicha topshiriq berildi. Shuningdek, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining axborotkommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta'minlanganlik va internet tarmog'iga ulanganlik holati tanqidiy o'rganilib, ularni bosqichma-bosqich zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta'minlash va internet tarmog'iga ulash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi.

Bir so'z bilan aytganda, Prezidentimizning "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi qarori maktabgacha ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodning barkamol va yetuk shaxs bo'lib ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish zarurki, maktabgacha sohasida faoliyat olib borayotgan pedagoglar, ushbu sohaga xizmat qiladigan barcha tashkilotlar bo'layotgan o'zgarishlarga ongli ravishda fidoiyligi, mehnati bilan o'z hissasini qo'shmog'i, maktabgacha ta'lim yo'nalishida tehsil olayotgan talabalar, bo'lajak pedagog-tarbiyachilar bilimli, malakali kadrlar bo'lib yetishishi zarurdir.

Bugungi kunda rahbarlik atamasini ishning ko'zini biladigan, kasbiga mehrini berib, o'zi, oilasi va butun el-yurtini o'ylab mehnat qiladigan, boshqaruv faoliyatini jon dildan seva olgan insonga nisbatan ishlatilishi mumkin. Rahbarlik yuksak aql-farosat, ko'p kuch-g'ayrat, izlanish va topqirlikni, o'z ustida tinmay ishlashni, o'rni kelganda, zaruriy tadbirkorlikni talab qiladi. Ta'lim tizimlarining boshlang'ich halqasi hisoblangan maktabgacha ta'lim sohasida ham boshqaruv faoliyatini takomillashtirish maqsadida 2017-yil 30-sentabrda "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlash va boshqaruvini qaytadan takomillashtirish to'g'risidagi qaror qabul qilindi va bugungi kunda vazirlik o'z faoliyatini olib bormoqda. Bu qaror va farmoyishlarning qabul qilinishining asosiy sababi mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lim sohasida olib borilgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligi uchun



maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish uni faoliyatini tubdan isloh etish bugungi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Darhaqiqat, bugungi kunda rahbarlarni to'g'ri tanlash, ularning kasbiga, shaxsiga xos xislarlarini anglagan holda boshqaruv faoliyatiga tayinlash muhim hisoblanadi. Buning uchun esa rahbar shaxsida aha shunday fazilatlar shakllangan bo'lishi zarurdir. Boshqaruv faoliyatida boshqaruvchi shaxs kasbiy sifatlar bilan shaxsiy sifatlarga ham ega bo'lishi lozim.

Rahbarning sifati o'z-o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi, o'z-o'zini baholash va shu asosda boshqalarga nisbatan ham munosabatini tashkil etishi lozim. Boshliq sifatida madaniyatli bo'lishi va buni muomalasida, boshqalar bilan bo'ladigan kundalik muloqotlarda ko'rinishi lozim.

Rahbarning muomala madaniyati: o'z o'rnida, joyida, aniq, tiniq, qisqa, lo'nda, samimiy so'zlashi va shu bilan birga suhbatdoshni tinglay olish qobiliyatidan iborat bo'lishi kerak. Ko'p hollarda rahbar bilan xodimlar o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy ziddiyatlar tinglay olmaslik yoki tushuna olmaslikdan kelib chiqadi. Boshqalarning o'rniga o'zini qo'yish, uning hiskechinmalarini tushunish, empatiya (hamdardlik) hissi, so'zlashuvlarda sabr-toqatlilik muloqot madaniyatining muhim tomoni ekanligi ma'lumdir.

Boshqaruvchi rahbar sifatida ana shu bilimlarga ega bo'lsak jamoada ma'naviy muhitni sog'lom shakllantirishga, ish unumdorligini, samaradorligini oshirishga va shu bilan birga bizga ishonch bildirib saylagan insonlarni ishonchini oqlab vatan ravnaqiga hissa qo'shiladi.

References:

1. "O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarini tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining buyrug'i 2019-y. 18-iyun B. 20.
2. «INFOLIB» axborot-kutubxona xabarnomasi. 2016 yil. 39-b.
3. Qodirova F.R, Toshpolatova Sh.Q, Kayumova N.M, A'zamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" Toshkent: "Adabiyot uchqunlari" – 2019. – B. 169
4. Sodiqova Sh. "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur bo'stoni" T.: 2013.
5. P.Yusupova. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi". Qo'llanma-1993